



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LINGVOMADANIY YONDASHUVNING O'ZIGA XOS AHAMIYATI

Shukurova Matluba Xoshimovna

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, o'qituvchi

Annotatsiya

Maqolada o'zbek tilshunosligida lingvomadaniy yondashuvning nazariy va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Lingvomadaniy yondashuv tilni milliy madaniyat, xalq tafakkuri va ijtimoiy-madaniy kontekst bilan uzviy bog'liq tizim sifatida o'rganishga imkon yaratadi. Tadqiqotda til birliklarining leksik, semantik va kognitiv jihatlarini hamda ularning milliy qadriyatlar va madaniy an'analar bilan aloqasi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, lingvomadaniy yondashuvning pedagogik ahamiyati ta'kidlanib, uning tilni milliy-madaniy kontekstda o'rgatish, talabalarning tafakkurini boyitish va milliy o'zlikni shakllantirishdagi samaradorligi yoritiladi. Maqolada lingvistik tadqiqotlar bilan kognitiv va madaniy yondashuvlarni uyg'unlashtirish zarurligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: lingvomadaniy yondashuv, o'zbek tilshunosligi, til va madaniyat, kognitiv tilshunoslik, milliy qadriyatlar, pedagogik ahamiyat, til birliklari, ijtimoiy-madaniy kontekst.

ОСОБОЕ ЗНАЧЕНИЕ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Шукuroва Матлуба Хошимовна

Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана,
преподаватель

Аннотация

В статье анализируется теоретическое и практическое значение лингвокультурологического подхода в узбекском языкознании. Лингвокультурологический подход позволяет рассматривать язык как систему, тесно связанную с национальной культурой, мышлением народа и социально-культурным контекстом. В исследовании рассматриваются лексические, семантические и когнитивные аспекты языковых единиц, а также их связь с национальными ценностями и культурными традициями. Подчеркивается педагогическое значение данного подхода, его эффективность в обучении языку в национально-культурном контексте, развитии мышления студентов и формировании национальной идентичности. Обосновывается необходимость интеграции лингвистических, когнитивных и культурологических исследований.

Ключевые слова: лингвокультурологический подход, узбекское языкознание, язык и культура, когнитивная лингвистика, национальные ценности, педагогическое значение, языковые единицы, социокультурный контекст.

THE SPECIFIC IMPORTANCE OF THE LINGUOCULTURAL APPROACH IN UZBEK LINGUISTICS

Shukurova Matluba Xoshimovna

University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, Lecturer

Abstract

This article analyzes the theoretical and practical significance of the linguocultural approach in Uzbek linguistics. The linguocultural approach enables the study of language as a system closely connected with national culture, collective thinking, and socio-cultural context. The research examines the lexical, semantic, and cognitive aspects of language units and their relationship with national values and cultural traditions. The pedagogical significance of this approach is also emphasized, highlighting its effectiveness in teaching language within a national-cultural context, enriching students' thinking, and shaping national identity. The article substantiates the importance of integrating linguistic, cognitive, and cultural approaches in modern research.


Keywords: linguocultural approach, Uzbek linguistics, language and culture, cognitive linguistics, national values, pedagogical significance, language units, socio-cultural context.

Zamonaviy lingvistika va madaniyatshunoslik fanlarida tilning nafaqat vosita, balki ijtimoiy va madaniy fenomen sifatida o'rganilishi dolzarb ilmiy masala hisoblanadi. Xususan, o'zbek tilshunosligida lingvomadaniy yondashuv tilni milliy madaniyat va tafakkur bilan uzviy bog'liq tizim sifatida o'rganish imkonini yaratadi. Lingvomadaniy yondashuv orqali til birliklarining ma'nosi, ishlatilish konteksti va ijtimoiy-madaniy funksiyalari chuqur tahlil qilinadi. Shu bilan birga, til va madaniyat o'rtasidagi murakkab bog'liqliklarni aniqlash, milliy qadriyatlar va an'analarni ilmiy asosda tahlil qilish imkoniyati paydo bo'ladi.

Mavzuning dolzarbligi. Zamonaviy tilshunoslikda lingvomadaniy yondashuvning dolzarbligi shundan iboratki, u tilni nafaqat kommunikatsiya vositasi sifatida, balki milliy madaniyat, tarixiy tajriba va xalq tafakkuri bilan uzviy bog'liq tizim sifatida o'rganish imkonini beradi. O'zbek tilshunosligida ushbu yondashuv milliy tilni asrab-avaylash, qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazish hamda til va madaniyat o'rtasidagi murakkab bog'liqliklarni aniqlash zaruratidan kelib chiqadi. Globalizatsiya jarayonlari va madaniy almashinuv sharoitida o'zbek tilining milliy o'zligini saqlash va rivojlantirish masalasi kundan-kunga dolzarb bo'lib bormoqda. Lingvomadaniy tadqiqotlar til birliklarining ma'nosi, ishlatilish konteksti va milliy madaniyat bilan bog'liqligini chuqur tahlil qilish orqali tilshunoslikda yangi ilmiy yo'nalishlarni ochadi. Shuningdek, lingvomadaniy yondashuv pedagogik jarayonlarda ham muhim ahamiyat kasb etadi: u tilni milliy-madaniy kontekstda o'qitish, talabalarining til va tafakkurini boyitish, hamda xalqning madaniy qadriyatlarini tushuntirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, o'zbek tilshunosligida lingvomadaniy yondashuv nafaqat nazariy ilmiy, balki amaliy jihatdan ham juda dolzarb va zarur hisoblanadi.

Mavzu metodologiyasi. O'zbek tilshunosligida lingvomadaniy yondashuvning ahamiyati bugungi kunda o'sib borayotgan global madaniyat almashinuvlari, milliy tilni asrab-avaylash va ta'lim jarayonlarida tilning madaniy funksiyalarini targ'ib qilish bilan bog'liqdir. Shu bois, lingvomadaniy yondashuv nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va pedagogika sohalarida ham muhim ilmiy vosita sifatida qaraladi.

Lingvomadaniy yondashuv - bu til birliklarini ularning ijtimoiy-madaniy kontekstdagi ahamiyati, milliy an'ana va qadriyatlar bilan bog'liqligini o'rganish metodologik asosidir. Shu yondashuv orqali tilning individual va kollektiv tafakkur, xotira va tajribani aks ettiruvchi funksiyasi aniqlanadi. O.A. Kozyreva va boshqa olimlar lingvomadaniy tadqiqotlarni kognitiv aspekt bilan uyg'unlashtirish orqali yanada samarali natijalarga erishish mumkinligini ta'kidlaydilar. Bunday yondashuv til birliklarini nafaqat leksik va grammatik kontekstda, balki madaniy va tarixiy kontekstlarda ham tahlil qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, lingvomadaniy tadqiqotlar milliy o'zlikni, xalqning dunyoqarashi va qadriyatlarini til orqali aniqlash imkoniyatini beradi. O'zbek tilshunosligida lingvomadaniy yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari куйидагилардан иборат (1-расмга қаранг).



1-rasm. O'zbek tilshunosligida lingvomadaniy yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari

Lingvomadaniy yondashuv shundan iboratki, konsept madaniyatning asosiy birligi, uning konsentrati sifatida tan olinadi. Y.S.Stepanov tavsifiga ko'ra, Konsept – matematik mantiqqa oid atama bo'lib, keyingi paytda madaniyatshunoslikda ham ildiz otdi va lug'atimizning asosiy atamasi hisoblanadi. Konsept, go'yo inson ongida insonning ruhiy olamiga kiradigan muayyan shakldagi madaniyat parchasi. Boshqa tomondan, insonning “madaniy qadriyatlar yaratuvchisi” emas, balki oddiy, sodda odamning o'zi madaniyatga kirishi va ba'zi hollarda unga ta'sir ko'rsatishini ifodalovchi vositadir. Konsept murakkab strukturaga ega bo'lib, bir tomondan, konseptga tegishli bo'lgan hamma narsa unga tegishli, ikkinchi tomondan, konsept tarkibiga uni madaniyat faktiga aylantiruvchi hamma narsa – asl shakl (etimologiya) tarkibning asosiy xususiyatlari aks etgan tarixi, zamonaviy assotsiativ birliklari va boshqalar kiradi.

O'zbek tilshunosligida bu borada tadqiqot olib borgan M.Bahramovanning yozishicha, Odatda, kognitiv yo'nalishda ma'lum bir konseptni verballashtiruvchi so'zning paradigmatic, sintagmatic, etimologik, assotsiativ bog'lanishlarini tahlil qilish zaruriyati kuzatiladi. Bunda izohli, etimologik, frazeologik, ensiklopedik lug'atlar, shuningdek, assotsiativ tajribalar konsept haqidagi ma'lumot manbalari bo'lib xizmat qiladi. Konseptlarni tavsiflashda maqollar va so'zlar tahlili alohida o'rin tutadi, chunki ular ma'lum bir tilda so'zlashuvchi ko'plab avlodlarning hayotiy tajribasini ma'lum bir konsept verbalizatorlari vositasida ifoda etadi.

Konseptning materiali lingvistik ma'lumotlar, ya'ni so'zlar etimologiyasi, so'z va tushunchalarning turli matn va lug'atlarda ishlatilishi va ularning talqini hisoblanadi. Ushbu matnlarning aksariyati konseptlar talqinini o'z ichiga olganligi sababli, o'z-o'zidan madaniy tushunchalar mohiyatiga ko'ra, konsept jarayonlari ham anglashiladi. Konseptning dastlabki yoki boshlanish tarixi xalq og'zaki ijodi va qadimgi yozma manbalardan izlanadi, chunki u xalq madaniyatining ana shu nuqtalarida o'z aksini topgan bo'ladi. Konseptning keyingi evolyutsiyasini to bugungi kungacha sinchiklab kuzatish mumkin. Bu shuni anglatadiki, asosiy konseptlar ro'yxati bugungi kunda ularning xalq ma'naviy hayotida ma'lum rol o'ynaydigan hosilalarini ham o'z ichiga oladi.

V.I.Karasik va G.G.Slishkinlar lingvomadaniy konsept strukturasini uch komponentli

deb hisoblaydilar: – qiymat birligi; – tushuncha birligi; – majoziy birlik.

Konseptning ijtimoiy funksiyasi shundan iboratki, olamning lisoniy tasviri ma'lum bir tarixiy davrda tilning mavjudligi ifodasidir. Ilm-fan, ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi, oliy va o'rta ta'lim darajasining ortishi olamning lisoniy manzarasiga ta'sir qiladi. Ba'zi ilmiy atamalar professional tildan umummilliy tilga o'tadi va bu bilan hech kimga noqulaylik tug'dirmaydi. Ular bu tilda shakllanib, til tashuvchilari tomonidan o'zlashtirilib boradi.

Z.Marufonaning fikricha, *konsept* insonning olamni idrok etishida faol harakatlanuvchi, uning ongida mental tarzda namoyon bo'ladigan, til egalarining dunyoqarashi, milliy-etnik xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi birlikdir. *Tushuncha* – predmetlar va hodisalar haqidagi fikr bo'lib, ularning umumiy va ahamiyatli belgilarini aks ettiradi, *konsept* esa biror jihati bilan umumiylik kasb etgan tushunchalar yig'indisidan iborat bo'lib, shunday bir g'oyaki, u nafaqat mavhum, balki aniq-assotsiativ va emotsional-baholovchi belgilarni ham qamrab oladi.

Konsept ma'lum bir "kuchli", ya'ni, qiymat (qadriyat) urg'usini olgan ong nuqtasi atrofida guruhlangan bo'lib, undan assotsiativ vektorlar ajralib chiqadi. Ona tilida so'zlashuvchilar uchun eng mos assotsiasiyalar konseptning o'zagini tashkil qiladi, unchalik muhim bo'lmagan assotsiasiyalar esa periferiyani tashkil qiladi. Konseptning aniq chegaralari yo'q, chunki u yadrodan uzoqlashgan sari assotsiasiyalar asta-sekin yo'qoladi. Konseptning markaziy nuqtasini aktuallashtiruvchi til yoki nutq birligi konseptning nomi sifatida xizmat qiladi.

Konseptning tushuncha birligi ongda verbal shaklda saqlanadi va shuning uchun nutqda to'g'ridan-to'g'ri takrorlanishi mumkin, majoziy birlik esa noverbal shaklda bo'ladi va faqat tasvirlanishi mumkin. Har qanday lingvomadaniy konseptni lisoniy jihatdan belgilash jarayoni ham muhim masalalardan biridir. Bir konsept turli sathdagi til birliklari orqali ifodalanishi mumkin: leksema, frazeologik birlik, so'z birikmasi, gaplar. Ayrim konseptlar esa morfemalar yoki so'z shakllari yordamida yuzaga kelishi mumkin. Shuningdek, bir til birligi kommunikativ kontekstlarga ko'ra turli konseptlarni ifodalashi mumkin.

Odatda, til belgisining idiomatikligi tilning lingvomadaniy mezonini hisoblanadi. Shu ma'noda, so'zning ichki shakli tegishli muloqot guruhining etnomadaniy o'ziga xosligining yorqin ko'rsatkichidir.

Idioma [yun. idioma – o'ziga xoslik, xususiyat] t.lsh. Ma'nosi o'z tarkibidagi so'zlarning ma'nolariga bog'liq bo'lmagan, yaxlit holda bir ma'no beruvchi, ixcham ibora; frazeologizmlarning bir turi. (O'TIL, 2-jild, 222-b.) V.I.Karasikning fikricha, lingvomadaniy birliklarga realiyalar, ya'ni obyektiv ravishda ma'lum bir etnomadaniy jamoaga xos bo'lgan faktlar (kiyim, binolar, taomlar, marosimlar nomlari boshqalar), shuningdek, ma'lum bir xalq madaniyatining mazmun xususiyatlarini ifodalovchi qo'shimcha ma'lumotlarni yetarli darajada tushunish uchun talab qilinuvchi aniq va mavhum nomlarni kiritish mumkin.

Idiomatik iboralarning boshlang'ich nuqtasi lisoniy ongda shakllangan bo'ladi. Masalan, *holva degan bilan og'iz chuchimaydi* iborasining ko'chma ma'noda *g'oyalar, niyatlar amalga oshmasa (natija bermasa) quruq gap bo'lib qolaveradi* ma'nosida qo'llanishi mumkin. Iboraning boshlang'ich nuqtasi – holva milliy shirinlik turi. Iboraning ko'chma ma'nosini anglash uchun til tashuvchisi ko'chim uchun asos ana shu bo'lgan predmetning denotatidan xabardor bo'lishi kerak.

Atrofimizdagi olam uzvlarining til orqali ifodalanishi "olamning lisoniy tasviri" atamasi bilan ifodalana boshladi. Olamning tasviri atamasi ilk bor XIX asr oxiri – XX boshlarida fizik tasvir ma'nosida G.Gers tomonidan ilmiy muomalaga kiritildi. Olam tasviri inson konsepsiyasining markaziy tushunchasi bo'lib, uning mavjudligining o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi.

Inson tafakkurida olamning lisoniy tasviri shakllanishida etnik qatlamning uzoq yillik tarixiy turmush tarzi jarayonlari, o'tmish voqealari, milliy-madaniy qadriyatlar, til birliklarida muhrlangan metaforik obrazli tasavvurlar ham muhim ahamiyatga ega. Xalqning ongosti

tasavvurida hayvonlar, parrandalar, qushlar kabi jonzorlar, tabiat hodisalari, koinot jismlari obrazlari, turmush tarziga xos belgi-xususiyatlar jamlanib boradi.

A.Vejbiskaya tadqiqotlarida semantik madaniy olamning asosiy xususiyatlari milliy adabiyot va falsafiy tafakkurga ko'ra, shuningdek, madaniyatni tashqi kuzatuvchi pozitsiyasi bilan baholovchi olimlar va sayohatchilarning dalillari asosida ochib berilgan. A.Vejbiskaya usuliga ko'ra, madaniyatning yadro komponentlari "kalit so'zlar" yordamida ajralib turadi, ya'ni o'rganish "kalit so'z" – konsept nomini tanlash bilan boshlanadi:

1) konsept nomini qo'llash chastotasi;

2) konseptlarni nomlashning turli vositalarini tahlil qilish orqali olamning lisoniy tasviri tegishli bo'lagining "madaniy rivojlanishi" kabi omillar hisobga olinadi. Ba'zi so'zlarni madaniyatning butun bir qismini o'z atrofiga birlashtirgan markaziy nuqta sifatida tahlil qilish mumkin. Ushbu markaziy nuqtalarni sinchkovlik bilan o'rganib chiqib, madaniyatning ma'lum bir sohasini shakllantiradigan va uyg'unlashdigan, ko'pincha, bir qator sohalarni qamrab oluvchi tushuntirish kuchiga ega bo'lgan umumiy tashkiliy tamoyillarni aniqlash mumkin bo'ladi. Ona tilida so'zlashuvchilarning madaniy mahsuloti hisoblanadigan ko'p sonli nutqiy kontekstlar (maqollar, iqtiboslar, badiiy matnlar, film nomlari, mashhur qo'shiqlar matnlari) o'rganiladi.

Y.S.Stepanov konseptni "qatlamli" shakllanish deb hisoblaydi. Birinchi navbatda, so'zning lug'aviy ma'nosi (ichki shakli) aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda konseptning "tarixiy" (passiv) qatlami ochiladi. Oxirgi bosqichda uning yangi aktuallashtirgan qatlami o'rganiladi. Y.S.Stepanovning tahlil usuli madaniy konseptning semiotik asosda shakllanishi va "madaniy xotira"ning tiklanishini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, keng miqyosda filologik va madaniy kontekstni jalb qilish bilan tavsiflanadi. Bu jihatdan A.Vejbiskayaning tahlil uslubi, asosan, konseptning aktuallashtirgan qatlamiga qaratiladi.

O'zbek tilshunosligida *konsept* tushunchasi N.Mahmudov, SH.Safarov, G'.Hoshimov, A.E.Mamatov, D.Ashurova, D.S.Xudoyberganova va boshqalarning ishlarida keng o'rganimoqda. Bugungi kunda o'zbek tilshunosligida lingvomadaniy konseptlarning xorijiy tillardagi xususiyatlari bilan qiyoslash asosida o'rganilishi keng yoyilgan.

D.K.Baxronovning "O'zbek va ispan tillarida olam manzarasining lingvokognitiv kategoriyalanishi" mavzusidagi doktorlik tadqiqotida zamonaviy tilshunoslikning lingvokognitiv tahlil masalalari, xalq va mentalitet, inson – til – tafakkur – madaniyat, dunyoqarash, olamning turli manzarasi, konseptual tadqiqotlar, etnoslar tarixida millatning/shaxsning lisoniy ongi, matnning konseptual mag'zi, madaniy kod hamda til va tafakkur, til va madaniyat, til va inson, til va tarix masalalari bilan bog'liq xulosalar berilgan. Olam manzarasi tavsifida namoyon bo'luvchi lisoniy shaxs ongidagi kognitiv jarayonlar uning lisoniy, folklor, mifologik, diniy, siyosiy, milliy manzara kabi detallashtirilishiga olib kelishi isbotlangan; o'zbek va ispan tillaridagi materiallar misolida olam manzarasini kategoriyalashga xizmat qiluvchi vositalarning konseptual-mazmuniy xususiyatlari ochib berilgan.

D.K.Baxronovning fikricha, *konsept* muayyan madaniyatga tegishli jamoa yoki individning xotirasida saqlangan tarixiy bilim va tajribalarning yangi bilim va tajribalar bilan birikuv natijasida insoniyat ongu shuurida hosil bo'lgan kategoriyalarning yaxlitlanishi tufayli paydo bo'ladi.

N.Abdunazarovning "Ingliz va o'zbek tillarida "do'stlik" konseptini ifodalovchi til birliklarining etik va semantik talqini" maqolasida "*do'stlik*" konseptining aktuallashtiruvchi *mehr-muhabbat*, *do'stlik*, *baxt*, *qalb-yurak* kabi leksemalarda inson his-tuyg'ulari tushunchasining ifodalanishi bilan bog'liq lingvosemantik konseptual xususiyatlar va ulardagi o'ziga xos etik (axloqiy) va semantik jihatlar talqin etiladi.

Maqola muallifi talqin qilingan turli xil diskurslarning (badiiy, falsafiy, etik, kundalik) tahlillari asosida *do'stlik* konsepti leksik-semantik belgisining yadrosi *muhabbat* hisoblanadi, do'stlikdagi mehr-muhabbat bir necha kishi o'rtasida ham shakllanishi mumkin, deb ta'kidlaydi.

Shunday qilib, do'stlik konseptining asosi o'zaro insoniy munosabatlar, ma'naviy yaqinlik, qiziqishlarning umumiyliigi, hurmat, mehr-oqibat va hokazolarda namoyon bo'ladi. Millati, dini, irqidan qat'i nazar, kishilarni birlashtiruvchi kuch sifatida do'stlik har doim muhim ijtimoiy-axloqiy qadriyat hisoblanib qolaveradi.

T.K.Mardiyev "Baxt" konseptining lingvomadaniy va semantik talqini (ingliz va o'zbek tillari qiyosida)" maqolasida bu konseptning o'zbek va ingliz tillaridagi o'ziga xos komponentlarini qiyoslab tahlil qiladi. Xususan, o'zbek madaniyatida ham, ingliz madaniyatida ham "baxt" konsepti oilaviy munosabatlarga qurilganligiga urg'u beradi. Bu borada qarindoshchilik va qo'ni-qo'shnichilikdagi o'zaro munosabatlar o'zbek mentaliteti uchun o'ziga xoslik belgisi bo'lsa, ingliz madaniyatida ijtimoiy muhitda omadli faoliyat, turmush tarzidan to'raligicha qoniqish hosil qilish va rozilik, istak-xohishning amalga oshishi, optimistik qarashlar kabi komponentlar xoslanishi ko'rsatiladi. Tadqiqotchi shu tariqa "baxt" konsepti qanday tushunchalar orqali verballashishini dalillaydi.

Muayyan konsept masalasiga doir ishlar orasida T.R.Yandashovanning "O'zbek va ingliz tillarida "go'zallik" konseptining ifodalanishi va lingvopoetikasi" dissertatsiyasi ham e'tiborga molik. Mazkur tadqiqot ishida boshqa-boshqa madaniyatga oid har ikki tildagi go'zallik konsepti va uni ifodalovchi fonetik-fonologik, leksik-semantik, morfologik-sintaktik vositalar ikki til badiiyatiga tegishli poetik matnlar misolida o'rganilib, o'zbek va jahon xalqlari milliy madaniyatida go'zallikka nisbatan ilmiy-falsafiy yondashuvlarning tabiiy, diniy, sun'iy talqinlari borligi, o'zbek xalqi lingvomadaniyatida go'zallik axloqiy barkamollik sifatleri bilan o'lehanishi, shuningdek, go'zallikda nomutanosiblik xunuklikka olib borishi, har ikki til lingvomadaniyatida ham subyektiv baho – "o'zimniki", "begona" tushunchalari amal qilishi misollar asosida isbotlangan. o'zbek va ingliz lingvomadaniyatidagi go'zallik konsepti aks etgan o'xshatish, metafora, paremiya, frazemalar bir qancha mavzuiy guruhlariga bo'linib, ularning o'xshash-noo'xshash, o'ziga xos va universal jihatleri ochib berilgan.

R.Ibragimova "Fransuz va o'zbek tillarida "ayol" konseptining lingvokognitiv tadqiqi" mavzusidagi dissertatsiyasida qisman "go'zallik" konseptiga to'xtalib o'tgan bo'lsa, T.R.Yandashova "go'zallik" konsepti "ayol" konsepti bilan nechog'lik bog'liqligini ta'kidlaydi. Mualliflar har ikki konseptning ham gender xususiyatlari alohida ahamiyatga ega ekanligiga urg'u beradilar.

M.Bahramova o'z tadqiqotida tilda "ayol"konseptining verballashuvi hamda konseptosferani tashkil etuvchi lug'aviy birliklar (verbalizatorlar)ni aniqlash, til jamoasi ongida "ayol" konseptining mazmuni va tuzilishiga xos konseptual sohaning semantik makonini modellashtirish hamda kognitiv tahlil qilish, konseptning milliy-madaniy xususiyatlarini yoritish maqsadida tilda "ayol" konseptining verbalizatorlarini aniqlashga, "ayol" konseptini lingvokognitiv asosda modellashtirish, uning tarkibiy qismlari, kategoriyalarini tavsiflashni ko'zda tutadi.

Olimaning ta'kidlashicha, Kognitiv tilshunoslikning asosiy muammosi til va nutqdagi muayyan konseptlarni ifodalovchi (obyektivlashtiruvchi) lingvistik vositalarni (so'zlarni, iboralarni, matnlarni) o'rganishdan iborat. Shu nuqtayi nazardan, kognitiv yo'nalish doirasida tilda namoyon bo'luvchi muayyan konseptni verbal ifodalashning barcha vositalari nazarda tutiladi. Bu esa konsept mazmuniga xos turli tarkibiy qismlarni ochib berish, uning mohiyati va tuzilishini jamiyatning fikrlash birligi sifatida baholash imkonini beradi.

Tilning ijtimoiyligi shundaki, u jamiyat bilan birga hamqadam bo'lib, tarixiy jarayonlar va ijtimoiy munosabatlar ta'sirida o'zgarib, rivojlanib boradi, muayyan zamon va makon belgilarini o'zida aks ettiradi. Shu bilan birga, milliy-madaniy qadriyatlar tizimini o'zida saqlaydigan bir xazina hisoblanadi. Inson ma'lum bir madaniy ichki tizimga asoslangan milliy-madaniy muhitda ulg'ayar ekan, shaxs sifatida ana shu madaniyat olamiga kirib, uning etnomadaniy jihatlarini til orqali o'ziga singdirib boradi. Madaniyat tarkibiy elementlarining

izchilligi, o‘zaro ierarxiyasi mavjudligi va qadriyatlarga bo‘ysunishi uning yaxlit tizim ekanligini ko‘rsatadi. Madaniy meros ajdodlar tomonidan yaratilgan va har bir jamiyatning ijtimoiy-madaniy jarayoniga kiritilgan qadriyatlar to‘plamini o‘z ichiga oladi.

Shu tariqa, Qadriyatlarga munosabat nuqtayi nazaridan Yaratganning bebaho ne‘mati bo‘lgan tilning akkumulyativ vazifasi yanada ravshanroq ko‘zga tashlanadi. Inson ongida olamning lisoniy manzarasi milliy stereotiplar, etnik tasavvurlar, obrazli metaforalar, o‘xshatishlar, konnotativ so‘zlar, ramziy tushunchalar kabi o‘ziga xosliklar vositasida shakllanadi. Shunday ekan, konsept markazi har doim qadriyatdir, chunki konsept madaniyatni o‘rganishga xizmat qiladi va madaniyat qadriyat tamoyiliga asoslanadi.

Xulosa. O‘zbek tilshunosligida lingvomadaniy yondashuvning o‘ziga xos ahamiyati uning tilni milliy-madaniy kontekst bilan uzviy bog‘liq tizim sifatida o‘rganish imkonini berishidir. Shu yondashuv orqali til birliklari nafaqat leksik va grammatik, balki kognitiv, psixologik va madaniy funksiyalar asosida tahlil qilinadi. Lingvomadaniy tadqiqotlar milliy o‘zlikni aniqlash, xalqning qadriyatlari va an‘analarini til orqali aks ettirish, shuningdek, tilni pedagogik va ilmiy kontekstlarda qo‘llash imkoniyatini yaratadi.

Shunday qilib, lingvomadaniy yondashuv o‘zbek tilshunosligida nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb va samarali metodologik vosita hisoblanadi. U kelajakda tilshunoslik, pedagogika va madaniyatshunoslik sohalarida yangi ilmiy yo‘nalishlar va tadqiqot imkoniyatlarini ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Бахронова Д.К. Антропозоморфизмларнинг семантик ва лингвокультурологик хусусиятлари (Ўзбек ва испан тиллари материалида): Филол.фанлари бўйича фалс.д-ри (PhD). – Тошкент, 2017. – Б.17.
2. Абдуназарова Н. Инглиз ва ўзбек тилларида “Дўстлик” концептини ифодаловчи тил birlikларининг этик ва семантик талқини // <https://inscience.uz/index.php/socinov/index>
3. Мардиев Т.К. “Бахт” концептининг лингвомаданий ва семантик талқини (инглиз ва ўзбек тиллари қиёсида) // Хорижий филология. №4, 2016. – Б. 36-43;
4. Усмонова Г. Инглиз ва ўзбек тилларида “оила” концепти билан боғлиқ стереотип тил birlikларининг таҳлили // International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers. Volume-11, Issue – 4, 2023. – Б. 135-140
5. Яндашова Т.Р. Ўзбек ва инглиз тилларида “гўзаллик” концептининг ифодаланиши ва лингвопоэтикаси: филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... автореферати. – Тошкент, 2021.
6. Bahramova M.M. “Ayol” konseptosferasining verbalizatorlari va kognitiv tahlili: Filol.fanl.bo‘y.fals.dokt.diss.avtoref. Farg‘ona, 2023.
7. Bahramova M.M. “Ayol” konseptosferasining verbalizatorlari va kognitiv tahlili: Filol.fanl.bo‘y.fals.dokt.diss.avtoref. Farg‘ona, 2023. – B.11.
8. Худойберганова З.Н., Мамаражабов Б.Б. Тил ва маданият: ўзаро муносабат ва ўзаро таъсир масаласи. // <https://cyberleninka.ru>